

HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILIDA FE'L SO'Z TURKUMI

Abdumajidova Ominaxon

Andijon davlat pedagogika instituti Filologiya fakulteti O'zbek tili va adabiyot yo'nalishi 2-kurs

Annotatsiya: Ushbu maqolada yurtimizda ta'limg tizimiga berilayotgan e'tibor va olib borilayotgan islohotlar,morfologiya bo'limi,fe'l so'z turkumi,fe'llarning yasalish usullari,hamda fe'llarning mayl shakllari haqida ma'lumotlar berilgan.

Аннотация: В данной статье представлены сведения о внимании, уделяемом системе образования в нашей стране и проводимых реформах, кафедре морфологии, глагольной лексике, способах образования глаголов, флексивных формах глаголов.

Annotation: This article provides information about the attention paid to the education system in our country and the ongoing reforms, the morphology department, the verb vocabulary, the ways of forming verbs, and the inflectional forms of verbs.

Kalit so'zlar: morfologiya,so'z turkumlari,fe'l,ta'limg sohasi,morfologik va sintaktik usullar.

Ключевые слова: морфология, группы слов, глагол, область исследования, морфологические и синтаксические методы.

Key words: morphology, word groups, verb, field of study, morphological and syntactic methods.

Bugun Yangi O'zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta'lif tizimidagi o'zgarishlar haqida to'lqinlanib so'zlamaslikning iloji yo'q. Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lif tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo'lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko'plab ijtimoiy muammolarni yechish imkonini tug'iladi. Shunday ekan, Yangi O'zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o'ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo'llab-quvvatlaydi."¹

Ta'lif sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliy ta'lif tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lifni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'lifni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lif texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2019 yil 8 oktyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda. Ushbu hujjatga intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta'lif va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi. Kontseptsiya mazmuni mamlakatimiz oliy ta'lif tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini aks ettiradi. Unda oliy o'quv yurtlarida qamrov darajasini kengaytirish hamda ta'lif sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar va ta'lif platformalarini joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, innovatsion tuzilmalarni shakllantirish,

¹ Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov, Doniyorov X. Hozirgi o'zbek adabiy tili. "O'qituvchi", -T.: 1980.

ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish, xalqaro e'tirofga erishish hamda boshqa ko'plab aniq yo'nalishlar belgilab berilgan. Bularning barchasi ta'lim jarayonini yangi sifat bosqichiga ko'tarish uchun xizmat qiladi.

Morfologiya so'z va uning grammatik xususiyatlari haqidagi ta'limotdir. Morfologiyada so'zning morfologik tuzilishi, yangi shakl va ma'nolar hosil qilishi bilan bog'liq qonun-qoidalar o'r ganiladi. Morfologiyada so'zlar mushtarak yoki farqli belgilari umumlashtirilgan holda turkumlarga ajratib o'r ganiladi. So'z leksikologiyada leksik birlik sifatida, morfologiyada esa grammatik birlik sifatida o'r ganiladi. Ish-harakat yoki predmetning faol holatini ifodalaydigan so'zlar fe'l deyiladi: k尔di, o'qidi, yozyapti, yig'layapti, gapirmoqchi, yugurmoqchi, sezdi, uyg'ondi. Fe'llar nima qildi?, nima qilayapti?, nima qilmoqchi? kabi so'roqlardan biriga javob bo'ladi. Fe'llar gapda asosan kesim bo'lib keladi. Fe'lning morfologik xususiyatlari fe'llardagi so'z yasalish tizimining faolligi, o'timli-o'timsizlik, bo'lishli-bo'lishsizlik, nisbat, mayl, zamon, shaxs-son kategoriyalari hamda vazifa va ma'no turlarining mavjudligi fe'l turkumining qamrovi kengligini ko'rsatadi.²

Fe'llar morfologik va sintaktik usullar bilan yasaladi. Ot, sifat, son, olmosh, ravish, undov va taqlid so'zlarga maxsus qo'shimchalar qo'shish orqali fe'l yasash morfologik usul hisoblanadi. Fe'llar asosan, quyidagi qo'shimchalar yordamida hosil qilinadi:

- la. gulla, kuyla, qorala, oqla, yangila, hozirla, shitirla, ufla.
- a osha, sana, o'yna, bo'sha.
- y (-ay) kuchay, qoray, ozay, zo'ray.
- r (-ar) ko'kar, qizar, yoshar, eskir.
- ik (-iq) kechik, birik, zo'riq, chiniq.
- sira sensira, yotsira, uyqusira.
- i boyi, tinchi, changi.
- qir o'shqir, hayqir.
- lan (-lash) otlan, ikkilan, yaxshilan, suhbatlash, lash)yordamlash, tezlash.

² Tursunov U., Muxtorov A., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. "O'zbekiston", -T.: 1992.

-illa yaltilla, gurilla, do‘rilla. illa
-ira yaltira, yarqira.
-ir gapir, tupir.

Ish-harakatning voqelikka munosabati fe’l mayllari orqali ifodalanadi.

Fe’llarda 3 xil mayl bor:

1.Aniqlik mayli. 2.Buyruq-istik mayli. 3.Shart mayli.

Aniqlik (xabar, ijro) maylidagi fe’llar ish-harakatning uch zamondan birida bajarilishi yoki bajarilmasligi haqidagi xabarni ifodalaydi. Aniqlik maylining maxsus ko‘rsatkichlari yo‘q: o‘qidi, o‘qiyapti, o‘qimoqchi kabi.

Buyruq-istik maylidagi -istik maylidagi fe’llar ish-harakatning bajarilishi bilan bog‘liq buyruq, istak, xohish, maslahat, iltimos, undov kabi ma’nolarni ifodalaydi. Bunday fe’llar -(a)y, -gin, -sin, -aylik, aylirk, -ing(iz), -ing(iz), ing(iz), -sinlar qo‘shimchalari bilan hosil qilinadi: ketay, borgin, yozsin, ketaylik, boring, yursinlar kabi.³

3. Shart maylidagi 3. Shart maylidagi fe’llar biror ish-harakatning bajarilishi uchun undan oldin bajarilishi shart qilib qo‘yilgan harakatni ifodalaydi. Bu mayldagi fe’llar –sa qo‘shimchasi orqali hosil qilinadi. Shart mayli qo‘shimchasi shaklidagi fe’llar sof shart, orzu-istik, iltimos, maslahat, faraz, payt kabi buyruq-istik mayliga xos ma’nolarni ifodalaydi. Ayrim darslik va qo‘llanmalarda shartli va maqsad mayli ham alohida ta’kidlanadi. Shartli mayldagi fe’l -(a)r, - masqo‘shimchasi bilan yasaluvchi sifatdoshga edi to‘liqsiz fe’lining qo‘shilishidan hosil bo‘ladi va bajarilishi biror harakatga bog‘liq bo‘lgan harakatni ifodalaydi: U kelsa, sen borar eding.

Maqsad maylidagi fe’l ish-harakatning bajarilishi maqsad qilinganligini bildiradi: bormoqchiman, bormoqchi bo‘lyapman kabi.

Xulosa:

Demak, fe’l so‘z turkumi eng katta mavzulardan biri bo‘lib, gap hosil qilishda va gapdagisi asosiy hukmni berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Fe’lning

³ Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova M., Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. “Fan va texnologiya”, -T.: 2009.

grammatik ko`rsatkichlari bir nechta bo`lib, ularsiz lingvistika fanini tasavvur qilib bo`lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov, Doniyorov X. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. “O‘qituvchi”, -T.: 1980.
2. Tursunov U., Muxtorov A., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. “O‘zbekiston”, -T.: 1992.
3. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova M., Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. “Fan va texnologiya”, -T.: 2009.
4. Rahmatullayev Sh. Sistem tilshunoslik asoslari. “Universitet”, -T.: 2007.
5. Olimov M. Risolai sarf yoki an’anaviy morfologiya. “FAN”, -T.: 2003.